

MUXAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HARBIY KAFEDRA

M. Egamberdiyev
“P-161A2M” O‘RTA QUVVATLI RADIOSTANSIYASI
O‘quv qo‘llanma

Toshkent 2018

M.P. Egamberdiyev, TATU Harbiy kafedrası o‘qituvchisi

“P-161A2M” o‘rta quvvatli radiostansiyasi

O‘quv qo‘llanma

TATU nashri, 2018 – 62 b.

Ushbu “P-161A2M” o‘rta quvvatli radiostansiyasi bo‘yicha o‘quv qo‘llanmasi TATU Harbiy kafedrasida tahsil olayotgan aloqachi talabalar va TATU Maxsus fakultetining kursantlari uchun mo‘ljallangan. Qo‘llanmada “P-161A2M” radiostansiyasining vazifasi, asosiy tavsiflari, qo‘llanilishi, tarkibi, ishga tayyorlash va turli ish rejimlarida ishlatish, radiostansiyani yoyish va yig‘ish qoidalari to‘liq keltirilgan.

Ushbu o‘quv qo‘llanma aloqachi talabalar va kursantlarning nazariy va amaliy jihatdan bilimlarini oshirishda yordam beradi.

Taqrizchilar:

Muxammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Elektronika va radiotexnika kafedrası mudiri, t.f.n., professor A.A. Tulyaganov;

Muxammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Harbiy kafedrası umumharbiy tayyorgarlik sikli boshlig‘i, podpolkovnik Q.N. Qambarov

Ma’sul muxarrir:

Muxammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Harbiy kafedrası boshlig‘i, podpolkovnik U.Sh. Bobojonov

Korrektor:

Muxammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Harbiy kafedrası katta o‘qituvchisi, f-m.f.n., A.T. Abdujamilov

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 25 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigida ta’kidlaganidek Qo‘shinlarni zamonaviy qurol-yarog‘ va harbiy texnika bilan qayta ta’minlash- bugungi va istiqboldagi eng muhim vazifadir.

Hozirgi davrga kelib Qurolli Kuchlarimizda olib borilayotgan izchil islohatlarning natijasida radioaloqa mutaxassislariga qo‘yilgan talablar yanada oshmoqda.

Vaziyat tez-tez o‘zgarib turuvchi zamonaviy jang sharoitida, qo‘shinlarning tezlik bilan ko‘chishida, boshqarish punktlarining joyi tez-tez o‘zgarishida radio aloqa eng samarali va ishonchli aloqa vositasi bo‘lib qoladi.

To‘g‘ri tashkil etilgan aloqa qo‘shinlarning ishonchli boshqaruvini va qo‘yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarilishini ta’minlaydi.

Shuning uchun shtablar boshqaruvining barcha bo‘g‘inlarida radioaloqani tashkil etishda alohida e’tibor beriladi.

Ko‘p sonli yuqori quvvatli radioqurilmalar efirda shovqinlarni ko‘payishiga sabab bo‘ladi, ayniqsa qisqa to‘lqinli diapazonida. Bu holatlar o‘z navbatida aloqaning yomonlashuviga, ayrim hollarda esa to‘la buzilishiga olib keladi.

Aloqaning yaxshilanishi uchun chastotalarni tezkor almashtirish, eng ma’qul chastotalarni qo‘llash, ya’ni to‘lqin tarqalishiga mos chastotalarni, qaysiki shovqinga nisbatan foydali signallar ustunligi bo‘lgan chastotalarni tanlash zarur bo‘ladi. Bu chastotalar chastota bo‘yicha dispetcherlik xizmatidan beriladi.

Shuning uchun ishchi chastotalarga ega bo‘lgan va bir chastotadan ikkinchisiga juda qisqa vaqtlar ichida o‘ta oladigan radioqurilmalardan foydalanish zarur bo‘ladi.


Ushbu o‘quv qo‘llanmada radioto‘lqinlar va uning xususiyatlari, “P-161A2M” radiostansiyasining vazifasi, asosiy tavsiflari, qo‘llanilishi, tarkibi, ishga tayyorlash va turli ish rejimlarida ishtatish, radiostansiyani joylashtirish, yoyish va yig‘ish qoidalari to‘liq keltirilgan.

1. “P-161A2M” RADIOSTANSIYASINING MO‘LLJALANISHI, ASOSIY XUSUSIYATLARI VA TAKTIK - TEXNIK KO‘RSATGICHLARI

1.1. Radioto‘lqinlar va ularning tarqalish xususiyatlari

Uzatuvchi antennadan tarqalayotgan radioto‘lqinlar uni (antennani) o‘rab olgan muhit bo‘ylab tarqatiladi. Odatda tarqalish muhitiga yer sathi, shuningdek suv va atmosfera sathi kiradi. Yer va atmosfera radioto‘lqinning tarqalish sharoitiga ta‘sir ko‘rsatadi.

Yer (suv) sathi radioto‘lqinlarni o‘ziga singdiradi, ya‘ni qabul nuqtasidagi elektromagnit energiyani kamaytiradi (chunki ular o‘tkazuvchanlik xususiyatiga ega). Yer atmosferasining ionosfera deb ataluvchi ionlashgan qatlami radioto‘lqinlarni singdirishdan tashqari, ularni sindiradi (radioto‘lqinlar refraksiyasi). 1.1- rasmda radioto‘lqinlarning tarqalish trayektoriyasi keltirilgan.



1.1- rasm. Radioto‘lqinlarning tarqalish trayektoriyasi.

Yer sathi va ionosferaning mavjudligi sababli uzatuvchi antenna yordamida tarqaluvchi radioto‘lqinlar qabul nuqtasiga ikki turli yo‘ldan kelishi mumkin: yer sathi bo‘ylab tarqalib qabul nuqtasiga kelgan radioto‘lqinlar **yer to‘lqinlari**, ionosferada aks etib qaytganlari **ionosferali to‘lqinlar** deyiladi.

Yer sathining va ionosferaning radioto‘lqinlar tarqalishiga ta‘sir darajasi yer sathi va ionosfera ko‘rsatgichlariga va radioto‘lqinning uzunligiga bog‘liq. To‘lqin uzunligi signal chastotasiga o‘zaro $\lambda_{(m)} = c/f_{(Gs)}$ (yorug‘lik tezligi $S = 3 \times 10^8$ m/s) bog‘liqligini nazarga olsak, signal chastotasi qanchalik kichik bo‘lsa to‘lqin uzunligi va antennang geyometrk o‘lchami shunchalik kattalashadi.

Radioaloqaning xalqaro reglamentiga muvofiq radioaloqada qo‘llaniluvchi va 3kGs ($3 \cdot 10^3$ Gs) dan 3000GGs ($3 \cdot 10^{12}$ Gs) gacha spektrni egallovchi chastotalar diapazoni alohida maydonlarga bo‘linadi.

To‘lqinlarning diapazon bo‘yicha bunday bo‘linishi shartlidir. Diapazonlar o‘rtasida keskin chegara yo‘q, biroq har bir diapazon to‘lqinlarining o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lib, bu faqat ularning o‘ziga tegishlidir.

Xalqaro reglamentga muvofiq radioto‘lqinlarning diapazonlarga bo‘linishini quyidagi jadval orqali ko‘rib chiqamiz:

1.1- jadval


Diapazonlar ning t/r	To‘lqin diapazonlarining nomi	Chastota diapazonlarining nomi	To‘lqin uzunligi	Chastota, Gs.
4	Juda uzun to‘lqinlar (miriametrli)	Juda past chastotalar (JPCh)	100–10 km	$(3-30)10^3$
5	Uzun to‘lqinlar (kilometrli)	Past chastotalar (PCh)	10–1 km	$(3-30)10^4$
6	O‘rta to‘lqinlar (gektometrli)	O‘rta chastotalar (O‘Ch)	1–0.1 km	$(3-30)10^5$
7	Qisqa to‘lqinlar (dekametrli)	Yuqori chastotalar (QCh)	100–10 m	$(3-30)10^6$
8	Ultraqisqa to‘lqinlar (metrli)	Juda yuqori (рус. высокое) chastotalar (UQCh)	10–1 m	$(3-30)10^7$
9	Detsimetrli to‘lqinlar	Ultra yuqori chastotalar (UYuCh)	1–0.1 m	$(3-30)10^8$
10	Santimetrli to‘lqinlar	Juda ham yuqori (рус. сверхвысокое) chastotalar (JYuCh)	10–1 sm	$(3-30)10^9$
11	Millimetrli to‘lqinlar	Nihoyatda yuqori (рус. крайне высокие) chastotalar	10–1 mm	$(3-30)10^{10}$
12	Detsimillimetrli to‘lqinlar	Giper yuqori chastotalar	1–0.1 mm	$(3-30)10^{11}$

Diapazonning turli uchastkalaridagi radioto‘lqinlarning tarqalish sharoitlari o‘zining xususiyatlariga ega, lekin umumiy xususiyatlarini ham qayd etish mumkin.

Masalan, radioto‘lqinlarning yer sathiga singishi chastotalarning o‘sishi bilan kattalashadi. Tuproqning nisbiy dielektrik singuvchanligi qancha katta bo‘lsa, radioto‘lqinlarning yer sathiga singishi shuncha kichik bo‘ladi.

Radioto‘lqinlarning ionosferada singishi va sinishi ionosferada ionizasiya darajasining oshishi va to‘lqinning uzunligiga bog‘liq bo‘ladi. Ionosfera ionizatsiyasining darajasi elektronlar konsentratsiyasi hajm birligida erkin elektronlar soni bilan aniqlanadi. Ionosferada elektronlar konsentratsiyasi kun, fasl va quyoshning har 11 yillikdagi faollik vaqtiga bog‘liq holda o‘zgaradi. Elektronlar konsentratsiyasi ionlashgan hudud balandligiga bog‘liq: balandlik 400 km gacha oshsa elektronlar konsentratsiyasi o‘sadi va maksimal $N_e=2 \times 10^{12}$ el/m³ kattalikka yetadi, shundan so‘ng kamaya boshlaydi. Elektron konsentratsiya va uning barqarorligiga qarab ionosferani balandlik bo‘yicha alohida qatlamlarga bo‘lish qabul qilingan va ular lotincha D, E, F₁, F₂ harflari bilan belgilanadi (1.2- rasm). D qatlam ionosferaning eng quyi qatlami hisoblanib faqat kunduzlari mavjud bo‘ladi ($N_e=2 \times 10^9$ el/m³) tunda esa yo‘qoladi.

E qatlami ($N_e=10^9 - 2 \times 10^{11}$ el/m³) eng stabil hisoblanadi. F₁ va F₂ qatamlar parametrlari kun, fasl va quyosh faolligi davrida keskin o‘zgarishi bilan farqlanadi.



1.2- rasm. Ionosfera qatlamlarining yerga nisbatan balandligi.

Ionosfera ko'rsatgichlarining davriy o'zgarishi ionosfera radioto'lqinlarining tarqalish sharoitiga keskin ta'sir ko'rsatadi. Bu o'zgarish radioaloqa signallarining ishchi chastotalarini tanlashda hisobga olinadi.

Diapazonning turli joylarida radioto'lqinlarning tarqalish xususiyatlarini batafsilroq ko'rib chiqamiz.

Miriametrli (JUT) va kilometrli (UT) to'lqinlar boshqa radioto'lqinlarga qaraganda yer sathiga kamroq singadi. Ular ionosferaning D va E qatlamlariga ham sust singadi va shu bilan birga ulardan yaxshi aks etadi. Shuning uchun miriametrli va kilometrli to'lqinlar diapazonida yer va ionosferali to'lqinlar bilan katta masofalarga radioaloqa o'rnatish mumkin. Bir necha yuz kilometr masofagacha radioaloqa asosan yer to'lqinlari bilan amalga oshiriladi, 300 km dan oshsa ionosferali deyiladi. Ushbu to'lqinlarning asosiy kamchiligi ularga kuchli radiouzatuvchi, ulkan antenna qurilmalarining kerakligidir va chastota diapazoning kichikligidir.

Qayd etilgan kamchiliklarga qaramay, miriametrli va kilometrli to'lqinlar katta kuchlanishli radioaloqaning magistral liniyalarida, shuningdek yer osti va suv osti obyektlari bilan aloqa qilishda keng foydalaniladi.

Gektometrli (O'T) to'lqinlarning miriametrli va kilometrli to'lqinlarga nisbatan yer sathiga singish darajasi yuqoriroq. Bundan tashqari, ionlashgan D qatlami mavjud bo'lgan kunduzgi vaqtda gektometrli to'lqinlar bu qatlamda ko'proq singadi. Shuning uchun radiochastotaning bu oralig'ida kunduzgi paytdagi radioaloqa faqat yer to'lqinlari bilan uncha katta bo'lmagan masofada o'rnatiladi. Tunda ionlashgan D qatlami yo'q bo'lganda ionosferada singish keskin kamayadi, E qatlamda aks etgan gektometrli to'lqinlardan uzoq masofaga radioaloqa o'rnatish uchun foydalansa bo'ladi.

Bu uchastkada to'lqinlarni tarqatish uchun qo'llaniladigan antenna qurilmalari uncha katta emas va miriometrli, kilometrli to'lqinlar diapazoniga qaraganda ancha samarali, bu esa kichikroq quvvatli radiouzatkichlardan foydalanish imkonini beradi. Yana shuni qo'shimcha qilish mumkinki, ushbu to'lqinlar diapazonining chastota hajmi miriometrli va kilometrli to'lqinlar diapazoni chastota hajmidan 10 marta katta. Gektometrli to'lqinlarning asosiy kamchiligi ularning kunduzi va tunda tarqalish

sharoitlarining o'zgarishidadir. Diapazonning ushbu uchastka radioto'lqinlari dengizlarda, yuqori kengliklarda (Arktika, Antarktida) ionosferali va magnit to'zoni bo'lganda boshqa chastotalarda radioaloqa imkoni bo'lmaganda radioeshittirish uchun qo'llaniladi.

Dekametrlı (QT) to'lqinlar istalgan masofada radioaloqa qilish uchun qo'llaniladi. Bu ularning tarqalish xususiyatlariga bog'liq. Ushbu diapazonda yer to'lqinlari oldingi diapazon to'lqinlariga nisbatan ko'proq singadi. Shuning uchun dekametrli diapazonda yer to'lqinli radioaloqa uzoqligi 100 – 150 km dan oshmaydi.

Dekametrli to'lqinlar ionosferaning D va E pastki qavatlariga sust singadi va F_2 yuqori qatlamida yaxshi aks etadi. Ionosferaning aks etuvchi qatlami qancha yuqori bo'lsa ionosferali to'lqinlarning tarqalish uzoqligi shuncha katta bo'ladi. Dekametrli to'lqinlarda radiouzatkich quvvati uncha katta bo'lmagan sharoitda ham uzoq masofalarda radioaloqani ta'minlash uchun ishlatiladi. Dekametrli to'lqinlarni tarqatish uchun qo'llaniladigan antenna qurilmalarining geometrik o'lchamlarining kichikligi ularni harakatlanuvchi obyektlarga o'rnatish imkonini beradi va ushbu antennalarni qo'llash samaradorligini oshiradi. Ushbu diapazon to'lqinlarining chastotaviy hajmi gektometrli to'lqinlar diapazoni hajmidan 10 marta kattaroqdir. Ammo turli maqsadlardagi radiostansiyalar tomonidan dekametrli diapazondan foydalanishi bu diapazonlarda to'lqinlarning haddan tashqari ko'payishiga olib keladi, natijada ishlayotgan radiostansiyalardan o'zaro hosil bo'layotgan xalaqitlarning ortib borayotganini kuzatish mumkin.

Ko'rib chiqilayotgan diapazonning boshqa bir kamchiligi radioto'lqinlarni tarqalish sharoitining ionosfera holatiga, ya'ni 11 yillik quyosh faolligi muddati, yil fasllari (qish, bahor, yoz, kuz) va kun vaqtiga (kecha, kunduz) bog'liqligidir. Ko'rsatilgan sabablar dekametrli diapazonning ayrim uchastkalari to'lqinlarining tarqalish sharoitini keskin o'zgartirishi mumkin. Masalan to'lqin uzunligi $\lambda > 25m$ bo'lgan radioto'lqinlar kunduzgi vaqtda D va E qatlamda kuchli singadi, tunda esa uzunligi $\lambda > 100m$ bo'lgan radioto'lqinlar ham ionosferaning quyi qatlamlarida kam singadi va ionosferali to'lqinlarda radioaloqa o'rnatish mumkin.

Shuning uchun kunduzi radioaloqa uchun qisqa to'lqinlardan ($\lambda = 10 \div 25m$), tunda esa ($\lambda = 35 \div 100m$) uzun to'lqinlardan ko'proq foydalaniladi. Dekametrli diapazondagi radioto'lqinlarning tarqalish sharoitlari nafaqat kundan tunga o'tish vaqtida, balki kunning istalgan vaqtida F_2 qatlamda ionizatsiya darajasining o'zgarishi natijasida o'zgaradi.

Dekametrli diapazon radioto'lqinlarining tarqalish xususiyatlari radioaloqa liniyalarining ishchi chastotalarini tanlashda hisobga olish zarur.

Metrli (UQT) to'lqinlar tarqalish sharoitlariga ko'ra yuqorida ko'rib chiqilgan diapazondagi radioto'lqinlardan tubdan farq qiladi. Asosiy farq shundaki, metrli diapazon radioto'lqinlari yer sathida kuchli singadi va ionosferada aks etmaydi (ba'zi holatlarda troposferali yoyilishdan tashqari). Ammo metrli diapazon radioto'lqinlarining yer sathiga kuchli singishiga qaramasdan radioaloqani tashkil etishda faqat yer to'lqinlaridan foydalaniladi. Chunki yer sathidagi yo'qotishlar o'rnini samarali kichik o'lchamli antenna qurilmalaridan foydalanish evaziga to'ldiriladi. Metrli to'lqinlar diapazonidagi yer to'lqinlar yordamidagi aloqa uzoqligi unchalik katta emas, uzatuvchi va qabul qiluvchi antennalar orasidagi to'g'ri

ko‘rinish orqali aloqani uzoqroq masofaga oshirish mumkin. Aloqa masofasini oshirish uchun samarali va yer sathidan baland ko‘tarilgan antennalardan foydalanish kerak. Amalda metrli diapazon radiouzatkichlarining quvvatini kuchaytirish aloqa masofasini sezilarli ortishiga sabab bo‘lmaydi, shuning uchun metrli to‘lqinlar diapazonida kam quvvatli radiouzatkichlar ko‘proq qo‘llaniladi.

Metrli to‘lqinlar diapazoni quyidagi avfzalliklarga ega:

- radioto‘lqinlarning tarqalish sharoitlari quyosh faolligi fazasi, yil fasllari va kun vaqtiga bog‘liq emasligi;
- ushbu diapazon chastotaviy hajmining kattaligi radioaloqaning ko‘p sonli liniyalarida bir paytning o‘zida ishlashini ta‘minlaydi;
- ushbu to‘lqinlar diapazonida radioaloqa masofasining cheklanganligi hatto bir xil chastotadagi radioliniyalar ishida o‘zaro halaqitlarning keskin kamayishiga olib keladi.

Shuning uchun Metrli to‘lqinlar diapazoni radiotexnika aloqasida keng qo‘llanilmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, turli diapazondagi radioto‘lqinlarning yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan tarqalish sharoitlari unchalik qat‘iy emas, ayniqsa berilgan diapazondagi radioto‘lqinlar xususiyatlariga qo‘shni diapazon xususiyatlari ta‘sir etuvchi chegaralarida. Masalan, $\lambda=10\div 15$ m uchastkadagi dekametrli diapazondagi to‘lqinlar quyosh faolligi minimum bo‘lgan yillarda metrli diapazon radioto‘lqinlari xususiyatlarga ega bo‘ladi. Xuddi shunday dekametrli diapazondagi uzunligi $\lambda=80\div 100$ m bo‘lgan to‘lqinlar esa tunda gektometrli diapazondagi radioto‘lqinlar xususiyatlariga ega bo‘ladi.



1.3- rasm. “P-161-A2M”¹ radiostansiyasining umumiy ko‘rinishi.

1.2. Radiostansiyaning vazifasi va asosiy xususiyatlari

Vazifasi: keng diapazonli (QT, UQT), moslashuvchan, uzatuvchi va qabulqiluvchi, o‘rta quavvatli “P-161A-2M”¹ radiostansiyasi tezkor-taktik boshqaruv komandirlari va shtab ofitserlariga joyida va harakatda telefon-telegraf radioaloqasini

¹ O‘quv qo‘llanmada keltirilgan qo‘shirnoq ostidagi barcha qisqartmalar kiril alifbosida o‘qiladi.

ta'minlab berish uchun mo'ljallangan. Radiostansiya bir turdagi va boshqa turdagi radiostansiyalar bilan bir xil ish rejimlarida aloqa o'rnatadi.

Asosiy xususiyatlari:

- ishchi chastotalar soni 585000 ta, QT da 1.5÷30 MGs. gacha, UQT da 30÷60 MGs. oralig'ida ishlaydi;
- radioqurilma oldindan tayyorlab qo'yilgan chastotada birinchisidan boshqasiga avtomatik ravishda o'ta oladi va 1÷1.5 soniya vaqt oralig'ida sozlanadi;
- bir yo'lakli modulyatsiyani qo'llanilishi chiqish quvvatini oshirish ($P_{max.}$) va radioqabulqilgichda o'tish yo'lagini qisqartirilishiga olib keladi;
- chastotali moslashuv qurilmasini qo'llash aloqaga tez chiqish, tasoddifan yoki maxsus shovqinlar orqali buzilgan aloqani tez tiklash faqat "P-161-A2M" radiostansiyasida qo'llanilgan.
- "P-016B" chastotali moslashuv apparaturasi aloqaga chiqishda eng kam shovqin bo'lgan chastotani tanlaydi. P-016B chastotali moslashuv apparaturasi yordamida aloqaga chiqish vaqti bir daqiqani tashkil qiladi. Buzilgan aloqani tiklash vaqti 10 ÷15 soniya.

1.3. Radiostansiyaning taktik - texnik ko'rsatgichlari

- chastota diapazoni: 1,5-60 MGs, diskret diapazonda chastota qadami – 100 Gs (OTChda), joyidan boshqarilganda (MY) – chastota qadami –10 Gs;
- har bir diapazonda (QT, UQT) oldindan tayyorlangan chastota (OTCh) lar soni – 10 ta, bir chastota (to'lqin) dan ikkinchi chastota (to'lqin) ga o'tish vaqti – 1-2 soniya;
- chiqish quvvati:1,2 kVt gacha;
- iste'mol quvvati: 6 kVt gacha.

Radiosignal (ish) turlari:

- "A3Ж-A1", "A3A-A1", "A3H-A1" "1КТФ2 (bir kanalli telefon) yuqori yon yo'lak (YuYoY);
- "A3Ж-B1", "A3A-B1", "A3H-B1" "1КТФ" past yon yo'lak (PYoY);
- "A3B" pasaytirilgan yoki susaytirilgan tashuvchi bilan, "1КТФ" yoki "2КТФ";
- F3- chastotali modulyatsiya faqat 20-60MGs (UQT) diapazonda;
- A1- amplitudali telegraf, kalitda yoki "P-010" Morze datchigida eshitish usulida ishlash;
- F1- chastotali telegraf, ChT- 125, 200, 250,500,1000 va 6000 Gs – bir kanalli telegraf (1KTG);
- F6- "ДЧТ"(рус. сдвоенная частотная телеграфия)-125, 200, 500 va 1000 Gs ikki kanalli telegraf (2KTG);
- F9- "ОФТ"(рус. относительная фазовая телеграфия) - nisbiy fazali telegraf.

Aloqa masofasi:

- turganda qisqa to'lqin (QT) diapazonda – 2000 km gacha;

- turganda ultra qisqa to‘lqin (UQT) diapazonda – 200 km gacha;
- harakatda qisqa to‘lqin (QT) diapazonda – 300 km gacha;
- harakatda ultra qisqa to‘lqin (UQT) diapazonda – 75 km gacha.

Radiostansiya boshqaruvi:

- joyidan “Местный”
- joyidan – Masofadan “Местный-Дистанционный”
- masofadan “Дистанционный”
- apparatxona qismidan;
- haydovchi kabinasidan;
- “П-274” kabeli yordamida 500 metr masofaga olib chiqilgan “ТА-57” telefon

apparati orqali;

- qabulqiluvchi apparatxonadan kabellar yoki RRL (radiorele liniya)

stansiyalari orqali;

- aloqa tugunidagi (рус.УС) oxirgi apparatxonadan “ПТПК 5x2” kabeli orqali.

Uzatuvchi antennalar tarkibi:

- kung ustida joylashgan balandligi 4(3) metrli nayzasimon antenna;
- “АЗИ” - tik tarqatuvchi antenna;
- “ЛПА” - logoperiodik antenna;
- “ШДА” - keng diapazonli antenna;
- λ -simon antenna (15x60);
- V-simon antenna (V2x46);
- T-simon antenna (T2x13, T2x40);
- “Д2x13, Д2x40” og‘ma dipol;
- “ДУ2x40” burchakli dipol.

Qabulqiluvchi antennalar tarkibi:

- “АШ-3” - nayzasimon antenna machtaga o‘rnatiladi;
- “ФАП” – ferritli qabul-qiluvchi antenna (kung ustida joylashgan);
- “Д 2x13, Д2x40” - og‘ma dipol;
- “ЛПА” – Logoperiodik antenna;
- λ - simon antenna (15x46, 15x60);
- V- simon antenna (V2x46).

Izox: Antennalar balandligi 12 metr bo‘lgan ikkita teleskopik machtaga osiladi va o‘rnatiladi. Barcha jamlangan antennalarni yoyish uchun o‘lchami 150 x 100 metr bo‘lgan maydon kerak bo‘ladi.

Radiostansiya antennalari tavsiflari

1.2- jadval

Radiostansiyaning ishlatish turlari	Antenna turlari	Chastota diapazoni, MGs.	Radioaloqa masofasi, km
Turgan joyda	V 2x46	10-30	2000
	Д 2x13	4-16	800
	ДУ 2x40	1,5-5	800
	T 2x13	2-5	60
	λ 15-60	20-60	150
	T 2x40	1,5-2	60

	ЛПА	40-60	200
	ШДА	30-60	80
Harakatda tezlik coatga 30 km/s dan ko'p emas	АЗИ	1,5-14	300
	ШТ-4	14-50	75
	ШТ-3	50-60	75

Radiostansiyaning elektr manbai:

- o'zgaruvchan tok tarmog'idan $U = 380/220V$, $F = 50$ Gs:
- “АБ-8-Т-400” rusumli 8 kVt li benzoelektr agregatdan. Benzoelektr agregat stansiyaning harakatdagi va joyida turgandagi asosiy elektr manbai hisoblanadi;
- “ЭУ-131-8-Т-400” rusumli 8 kVt li umumlashtirilgan elektr qurilmasidan;
- tirkamada joylashgan “ЭСБ-12-Т-400” rusumli 12 kVt li elektrstansiyadan. Alohida joylashgan elektrostansiya turgan joyida asosiy elektr manbai hisoblanadi.

Radiostansiya o'zgaruvchan 220V kuchlanishli tok tarmog'idan ham oziqlanishi mumkin, u holda “СТС-16/0,5С” rusumli kuchlanishni muntazamlovchi qurilma (СН) ishlatiladi.

Radiostansiya ekipaji 3 kishidan iborat:

- radiostansiya boshlig'i;
- radiooperator;
- haydovchi – elektrik;
- (maxfiy aloqa apparaturasi mexanigi lavozimi – yuqori jangovar shaylik darajasida qo'shiladi).

Radiostansiyaning yoyish vaqti:

- radiostansiyaning barcha to'plam antenna qurilmalari bilan yozgi sharoitda yoyish 2 soat 30 daqiqa;
- radiostansiyaning harakat davomida yoyish vaqti 8-10 daqiqa.

Radiostansiya “K6-131” kungida joylashgan bo'lib “ЗИЛ-131” avtomobili shassisida o'rnatilgan. Kung qismlarga ajratilgan bo'lib: apparatxona, uzatuvchi va agregat xonalardan iborat.

Radiostansiyaning to'liq og'irligi 10,5 tonna.

Radiostansiya “АН-22” samolyotiga ham joylashtirilishi mumkin.

Birinchi bo'lim nazorat savollari

1. Radioto'lqinlarning turlari.
2. Radioto'lqinlarning tarqalish xususiyatlari.
3. Radiostansiyaning vazifasi va asosiy xususiyatlari.
4. Radiostansiyaning taktik - texnik ko'rsatkichlari.
5. Uzatuvchi antennalar tarkibi.
6. Qabulqiluvchi antennalar tarkibi.
7. Radiostansiyaning elektr manbai.

2. RADIOSTANSIYANING TO‘PLAMI TARKIBI VA MASHINADA JOYLASHUVI

2.1. Radiostansiyaning tarkibi

Radiostansiyaning tarkibiga quyidagilar kiradi.

1. Lazur – qo‘zg‘atkich bloki.
2. “ТПП-6-1” (УМ) quvvat kuchaytirgich bloki UQT diapazoni uchun.
3. “ТПП-6-2” (УМ) quvvat kuchaytirgich bloki QT diapazon uchun.
4. “ТПП-7-1” (СУ) moslashtiruvchi qurilma UQT diapazoni uchun.
5. “ТПП-7-2” (СУ) moslashtiruvchi qurilma QT diapazoni uchun.
6. “ТПП-55” (БУ СУ) moslashtiruvchi qurilmaning boshqaruv bloki.
7. “ТПП-16” (ЭН) quvvat kuchaytirgich ekvivalent yuklamasi.
8. “ТПП-53” (СКУ) simmetriyalash va kommutatsiyalash qurilmasi.
9. “АППС-20” (КПА) uzatuvchi antenna kommutatori.
10. “БУ-76” – kuchlanishni to‘g‘rilagich (o‘zgartirgich), u 2 ta blokdan iborat:
 - a) “БУ-76Н” – past kuchlanishli to‘g‘rilagich.
 - b) “БУ-76В2” – yuqori kuchlanishli to‘g‘rilagich.
11. “МПА-1” va “МПА-2” – (ТТА) tik tarqatuvchi antennani ko‘tarish mexanizmi.
12. “ТТА” pulti.
13. “Р-160П” – radioqabulqilgich.
14. “ТПП-19” (КПА) – qabulqiluvchi antenna kommutatori.
15. “Р-326” – radioqabulqilgich.
17. “АППС-9” (ПНР) – radiostansiya boshlig‘i pulti, uning tarkibiga ikkita qurilma kiradi:
 - “АППС-93” – radiostansiyaning boshqarish paneli.
 - “АППС-94” – saqlash (ОТЧ) qurilmasi.
18. “Р-016В” moslashtirish qurilmasi, u “В10” va “В20” ta‘minot blokidan tashkil topgan.
19. “АППС-27” (ПРО) – radiooperator pulti.
20. “Р-010” – kodli Morze datchigi.
21. “СА-ТГ” – oxirgi TLG apparaturasi.
22. “П-321” – sathni o‘lchovchi asbob.
23. (АЗИД-1Д – radioreley stansiyasi).
24. “АППС-40” (РК) – kabina pulti.
25. “Р-105М” – UQT li radiostansiya.
26. “АППС-11” – abonent kommutatori.
27. “СА-ТЛФ” – oxirgi TLF apparaturasi
28. “АБ-482” – modem;
29. “ПНР” – TLG kaliti.
30. Mikrotelefon garniturasini.
31. Kabina pultining mikrotelefon garniturasini.
32. “1К21-3” rusumli kondisioner.
33. Elektr ozuqa tizimi.

2.2. Radiostansiyaning mashinada joylashuvi

Radiostansiyaning asosiy qurilmalari mashinada quyidagicha joylashtirilgan:

- apparat qismida;
- uzatish qismida;
- agregat qismida.

Yordamchi qurilmalar haydovchi kabinasida va kung tashqarisida joylashtirilgan.

Apparat qismida quyidagilar joylashgan:

1. Qo‘zg‘atkich (BO-78)
2. “P-160II” qabulqilgichi.
3. Moslashtiruvchi qurilmaning boshqaruv bloki
4. “P-016B” – adaptatsiya qurilmasi.
5. “АБ-482” - modemi.
6. “IIHP” – radiostansiya boshlig‘i pulti.
7. Radiooperator pulti (АППС-27).
8. Abonent kommutatori (АППС-11)
9. “ТIPII-19” (КПА) – qabulqiluvchi antenna kommutatori.
10. Maxsus kirish (АППС-23) – maxsus apparatura bilan ishlash uchun.
11. Liniya kirishi (ТIPII-21) – oxirgi telefon (ТФ), telegraf (ТГ) maxfiy aloqa apparaturasi va chiqarilgan “ТА-57” qurilmasini ulash uchun.
12. Kommutatsiya blokini boshqarish pulti (АППС-37) – ozuqa kuchlanishini nazorat qilish va kommutatsiya blokiga komanda berish uchun.
13. Kuchlanish o‘zgartirgichi (АППС-61, 12 V ni 27 V ga o‘zgartiradi).
14. “P-326” qabulqilgichi “BC-2,5” to‘g‘rilagichi bilan.

Uzatish qismida quyidagilar joylashgan:

1. Quvvat kuchaytirgich (QT va UQT diapazoni uchun).
2. Moslashtiruvchi qurilma (QT va UQT diapazoni uchun).
3. Simmetriyalash va kommutatsiyalash qurilmasi.
5. “BY-76” – kuchlanishni to‘g‘rilagich.
6. Kommutatsiya bloki (АППС-18) – ozuqa zanjirini kommutatsiyalash uchun.
7. Navbatchi qabul kommutatori (АППС-33) – “ТТА” va “P-326” radio qabulqilgichini qo‘shish uchun.
7. Tarqatish qutisi (220V iste‘molchilarga).
8. Uzatuvchi antenna kommutatori.
9. Moslashtiruvchi qurilma ventilyasiya bloki.
10. Rele bloki.

Agregat qismida quyidagilar joylashgan:

1. Benzoagregat “АБ-8-Т/400”.
2. Kuchlanishli kirishi (АППС-22).
3. Avtomatik himoya qalqoni (ИЦА3).

4. Tarmoq filtri (АПП-81).
5. Uzatkich ventilasiya bloki.
6. Yuklama ekvivalenti (ТПП-16).
7. Tortuvchi (рус. вытяжной) ventilyator.

Haydovchi kabinasida quyidagilar joylashgan:

1. Kabina pulti (АППС-40).
2. “ТТА” pulti.
3. “Р-105М” radiostansiyasi.

Kungning o‘ng devorida quyidagilar joylashgan:

1. Kuchlanishli kirish (АПП-22).
2. Benzin agregatga havo berish (chiqarish) tuynigi.
3. QK ga havo berish (chiqarish) tuynigi.
4. Tortuvchi ventilyator.
5. Liniya kirishi СП-1.

Kungning old devorida quyidagilar joylashgan:

1. Isitish qurilmasi (OB-65).
2. Havoni tozalash qurilmasi (ФВУА-100Н).

Kungning chap devorida quyidagilar joylashgan:

1. Liniya chiqishi (ТПП-21).
2. Ventilyator (рус. притяжной).
3. QK dan havoni chiqarish tuynigi (ТПП-83).
4. Benzin agregatdan havoni chiqarish tuynigi.

Shassi ramasining oldida - mashina dvigatelidan quvvat ajratib olish uchun “ЭУ-131-8-Т/400” rusumli elektrqurilma o‘rnatilgan.

Tirkamada – “ЭСБ-12-Т/400” elektrostansiyasi o‘rnatilgan.

Radiostansiyani masofadan boshqarish uchun “АЗИД-1Д” rusumli radiorele stansiyasi o‘rnatilishi mumkin.

Antennalarning joylashuvi.

Kung tepasida:

- ferritli qabulqiluvchi antenna (ФАП);
- uzatuvchi antenna kommutatori (АППС-20);
- antenna moslashtiruvchi qurilmasi anjomlari;
- kungning ustki orqa tomonida ТТА ni ko‘tarish mexanizimi;
- kungning chap devorida qabulqiluvchi antenna kommutatori (ТПП-19)

joylashgan.

2.3. Radiostansiyaning asosiy qurilmalari va ularning vazifalari

“Lazur” qo‘zg‘atkichi

Lazur qo‘zg‘atkichi ishchi chastotalarini va barcha signallar turlarini hosil qilish uchun mo‘ljallangan. Qo‘zg‘atkichning chastotalari joyidan boshqarish rejimida (MY) uning old panelidagi murvatlari orqali o‘zgartiriladi yoki yodda saqlash kommutatori orqali (MД) qo‘yilishi mumkin. OTCh lar radiostansiya boshlig‘i pultidan o‘zgartiriladi.



2.1- rasm. “Lazur” qo‘zg‘atkich blokining old tomondan umumiy ko‘rinishi.

Qo‘zg‘atkichga chastota o‘rnatilishi bilan quvvat kuchaytirgich, moslashtiruvchi qurilma va simmetriyalash-kommutatsiyalsh qurilmalariga diapazonlarni tanlash uchun komandalar beriladi.

Qo‘zg‘atkich ikkita chiqishga ega:

a) Asosiy chiqish $U=1V$ miqdorida, quvvat kuchaytirgich blokiga berish uchun mo‘ljallangan;

b) Qo‘shimcha chiqish $U=30mV$, moslashtirish zanjirini sozlash uchun ishlatiladi.

Qo‘zg‘atkich asosiy chiqishining signali QT yoki UQT traktining (yo‘li) kirishiga beriladi va ПHP dagi QT - UQT (KB –YKB) tumblari orqali tanlanadi.

Quvvat kuchaytirgich (QK)

Quvvat kuchaytirgich qo‘zg‘atkichdan chiqayotgan barcha signallarni kuchaytirib 1200 Vt chiqish quvvatiga olib kelish uchun mo‘ljallangan. QT va UQT quvvat kuchaytirgichlari bir xil lampali 3 kaskad asosda yig‘ilgan. U boshqaruv qurilmasi (BQ), kuchlanishni avtomatik ravishda to‘g‘rilash (APH) va yo‘naltirilgan elementlardan iborat.



2.2- rasm. Quvvat kuchaytirgich (QT va UQT) blokining old tomondan umumiy ko‘rinishi.

Chiqish quvvatining doimiyligi quvvat kuchaytirgich kuchlanishni avtomatik ravishda ulab turish evaziga amalga oshiriladi. Sozlash noto‘g‘ri bo‘lganda qaytgan to‘lqin (рус. отраженная волна) indikatorini boshqaruv qurilmasini yopish uchun komanda beriladi. Bu komanda MQ boshqaruv blokida “Возврат защиты” chirog‘i yonishi bilan aniqlanadi. QK ni ish qobiliyatini aniqlash antennaga yuklama ekvivalenti (ЭН) orqali amalga oshirishi mumkin, yuklama ekvivalenti 75Om ga teng bo‘lgan qarshilikdan iborat. U havo haydash yo‘li bilan sovitiladi.

To‘g‘rilagich qurilmasi (BY-76)

To‘g‘rilagich qurilmasi quvvat kuchaytirgich traktini manba bilan ta’minlash uchun mo‘ljallangan. Kuchaytirgich traktining ishga tushish vaqti lampaning qizishiga bog‘liq, u 3-5 daqiqani tashkil etadi. Bir diapozondan boshqa diapazonga o‘tish vaqtini qisqartirish maqsadida to‘g‘rilagich qurilmasida ishlayotgan traktidagi lampa nakali zanjirini “Накал-2” tumblerini yoqish orqali erishiladi.



2.3- rasm. To‘g‘rilagich qurilmasining old tomondan umumiy ko‘rinishi.

Moslashtirish qurilmasi (CY)

Moslashtirish qurilmasi antennalar qarshiligini kerakli ish chastotalarida toza aktiv qarshilikka (75Om) aylantiradi, ya’ni QK ning chiqish qarshiligi bilan antennalar kirish qarshiligini moslashtiradi.

QT va UQT MQ lari chizmalari bir xil ishlangan. MQ ining asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

a) moslashuv zanjiri (рус. согласующая цепь);

b) yuqori chastotali sozlash ko‘prigi (рус. высокочастотный мост настройки).

Nurlanishsiz sozlashda, moslashuv zanjiri antenna bilan birgalikda yuqori chastotali sozlash ko‘prigining bir yelkasiga ulanadi. Ko‘prikdan oziqlanish diagonaliga “Lazur” qo‘zg‘atkichning chiqishi, ko‘prikdan qarama-qarshi diagonaliga antenna kommutatori orqali “P-160П” radioqabulqilish qurilmasining kirishi ulanadi.

Sozlas jarayonida ko‘prikning teng (balans) holati radioqabulqilgichning chiqishidagi signalning kichik miqdori orqali ifodalanadi.


Moslashtirish qurilmasidan o‘zgartirish MQ ni boshqaruv blokidan boshqariladi. MQ boshqaruv bloki MQ ning sozlangan holatini yodda saqlashini ta’minlaydi va qo‘zg‘atkichning ishchi chastotasiga binoan MQ va SKQ (CKY) bloklariga poddiapazonlarni (рус. поддиапазон) tanlashi uchun komandalar beradi.



2.4- rasm. Moslashtirish qurilmasining old tomondan umumiy ko‘rinishi.

Simmetriyalash-kommutatsiyalash qurilmasi (CKY)

Simmetriyalash-kommutatsiyalash qurilmasi uzatkichning chiqishiga har xil antennalarni ulash, MQ ning QT da nosimmetrik chiqishini simmetrik antennalarga moslab ulash va MQ QT chiqishini dipol, T-simon, TTA antennalari bilan avvaldan sozlash uchun mo‘ljallangan.



2.5- rasm. Simmetriyalash-kommutatsiyalash qurilmasining old tomondan umumiy ko‘rinishi.

Moslashtirish qurilmasining boshqaruv bloki (MQ BB)

Moslashtirish qurilmasining boshqaruv bloki MQ va SKQ (CKY) qurilmalarini boshqarish uchun mo'ljallangan.



2.6- rasm. Moslashtirish qurilmasi boshqaruv blokining old tomondan umumiy ko'rinishi.

“P-016B” adaptatsiya qurilmasi

“P-016B” adaptatsiya qurilmasi xalaqlar sharoitida chastotali adaptatsiya va radioto'lqinlarni tarqalish sharoitida aloqani o'rnatish va olib borishni avtomatlashtirish hisobiga radioliniyaning (radioyo'nalish) o'tkazuvchanlik qobliyatini oshirish uchun mo'ljallangan.



2.7- rasm. “P-016B” adaptatsiya qurilmasining old tomondan umumiy ko'rinishi.

Radiostansiya boshlig'i pulti (IIHP)

Radiostansiya boshlig'i pulti **telefon** va **telegraf** oxirgi qurilma zanjirlarini uzatkich chiqishiga va qabulqilgich kirishiga nooperativ va operativ qurilmasi orqali kommutatsiyalash uchun mo'ljallangan hamda apparatxona, **telefon** va **telegraf** apparatxona, QShM, haydovchi kabinasi va olib chiqilgan “TA-57” apparatidan radiostansiyaning boshqarish uchun mo'ljallangan.

U quyidagilarni ta'minlaydi:

- uzatkich va qabulqilgich qurilmalarini apparatxonadan boshqarish;
- apparatxona qurilmalarining ish holatini boshqarish;
- haydovchi kabinasi va tashqi abonentlar bilan xizmat aloqasini olib borish;
- uzatuvchi qurilmaning elektr ta'minotini yoqish va o'chirish;
- uzatuvchi qurilmaning yuqori kuchlanishini yoqish va o'chirish;

- uzatuvchi va qabulqiluvchini bitta **oldindan tayyorlangan chastotaga** o‘tkazish;
- signallar va ma’lumotlarni hamma turdagi ish rejimida qabul qilish va uzatish;
- oldindan tayyorlangan antennalarni uzatkich va qabulqilgich qurilmasiga ulash;
- “TTA” ko‘tarish mexanizimini boshqarish;
- sozlangan chastotada “ФАП” va MQ da yodda saqlash;
- radiokanallarda ma’lumotlar o‘tishini (П-321, ИП) asboblar yordamida nazorat qilish.



2.8- rasm. Radiostansiya boshlig‘i pultining old tomondan umumiy ko‘rinishi.

Nooperativ kommutator (KH)


Nooperativ kommutator oxirgi apparaturalar bog‘lovchi liniyasini, kanal hosil qiluvchi vositalarni, radiostansiya yordamchi apparaturalarini va xizmat aloqa apparaturalarini kommutatsiya qilish uchun qo‘llaniladi.



2.9- rasm. Nooperativ kommutator blokining old tomondan umumiy ko‘rinishi.


Chastotalarni xotirada saqlash qurilmasi.

Qo‘zg‘atkich va qabulqilgichning chastotalarni xotirada saqlash qurilmasi o‘zida kommutatsiya kolodkasini aks ettiradi, simchalar yordamida qabul qilishga va uzatishga 10 ta oldindan tayyorlangan chastotalar (OTCh) saqlab olinadi.



2.10- rasm. Chastotalarni xotirada saqlash qurilmasining old tomondan umumiy ko‘rinishi.

“АППС-91”-xizmat aloqasini va axborotlar zanjirini kommutatsiyalash qurilmasi. “АППС-92”-antennalarni kommutatsiyalash, hamda “ПНР” ning manba qurilmasi.



2.11- rasm. “АППС-91” va “АППС-92” qurilmasining umumiy ko‘rinishi.

Radiooperator pulti (ROP)

Radiooperator pulti “P-010” Morze datchigi yordamida, yoki “T-600” (T-225) rusumli maxfiy aloqa apparaturasi (MAA) yordamida eshitiladigan TLG aloqasini tashkil qilish uchun mo‘ljallangan. Uning old panelida ikkita “P-010-CATF”, “ПЕР-ПР” tumblari va “рус. Громкость” patonsiometri hamda “ТФ”, “ТА” ikki juftli ulash tirqichi joylashtirilgan.

“P-010-CATF” tumblari “P-010” datchigini yoki “MAA” ni uzatish traktiga ulashni ta’minlaydi. “ПЕР-ПР”, tumblari radiostansiya simpleks rejimida ulanganda qabuldan uzatishga o‘tishini ta’minlaydi.



2.12- rasm. Radiooperator pultining old tomondan umumiy ko‘rinishi.

Kabina pulti (KII)

Kabina pulti haydovchi kabinasidan radiostansiyani boshqarish uchun va apparat boʻlimlari bilan xizmat aloqasini tashkil qilish uchun moʻljallangan.



2.13- rasm. Kabina pultining old tomondan umumiy koʻrinishi.

Liniyalı kirish (рус. линейный ввод)

Liniyalı kirish tashqi apparatxonalarni *nooperativ kommutator orqali* radiostansiyaga ulash uchun moʻljallangan. Liniyalı kirishda ikkita “2PMT” tipdagi tirqich boʻlib, unga “ПТРК-5x2” (АПТФ va АПТГ) rusumli bogʻlash kabeli ulanadi. Undan tashqari “рус. Дополнительная линия” chiqarilgan telefon apparatini ulash uyasi, 12V li rozetka, “рус. Освещение” yoritgichi, “рус. Отключить” tumblari va saqlagichdan iborat.



2.14- rasm. Liniyalı kirishning old tomondan umumiy koʻrinishi.

Maxsus kirish (рус. специальный ввод СП-1)

Maxsus kirish oxirgi “МАА” ning ulanish kabellarini ulash uchun hamda olib chiqilgan telefon apparatini abonent kommutatori (АППС-11) ga ulash uchun moʻljallangan.

Maxsus kirish old panelida “АП ТФ” tirqichi “ПТРК-5x2” kabelini ulash, yerga ulash klemmasi va 2 ta klemma (Klemma 1, Klemma 2) olib chiqarilgan telefon apparatini “П-274” kabeli bilan ulash uchun moʻljallangan.



2.15- rasm. Maxsus kirish qurilmasining old tomondan umumiy ko‘rinishi.

Ekvivalent yuklama (ΘH) – quvvat kuchaytirgichni va radiostansiyaning nurlanishsiz sozlashda yuklama sifatida qo‘llaniladigan aktiv qarshilik.

Uzatuvchi antennalar kommutatori (KHA) – radiostansiya tarkibidagi istalgan uzatuvchi antennani (tik tarqatuvchi antennadan tashqari) radiostansiyaning simmetriyalash va kommutatsiyalash qurilmasi blokining chiqishiga ulash uchun mo‘ljallangan.

Ikkinchi bo‘lim nazorat savollari

1. Radiostansiyaning tarkibi.
2. Radiostansiyaning mashinada joylashuvi.
3. “Lazur” qo‘zg‘atkichining mo‘ljallanishi.
4. Quvvat kuchaytirgichining mo‘ljallanishi.
5. Moslashtirish qurilmasining mo‘ljallanishi.
6. Radiostansiya boshlig‘i pultining mo‘ljallanishi.
7. Simmetriyalash-kommutatsiyalash qurilmasining mo‘ljallanishi.
8. “P-016B” adaptatsiya qurilmasining mo‘ljallanishi.
9. Radiooperator pultining mo‘ljallanishi.
10. Chastotalarni xotirada saqlash qurilmasining mo‘ljallanishi.

3. RADIOSTANSIYANING ELEKTR TA'MINOT TIZIMI

3.1. Radiostansiya elektr ta'minot tizimining tavsifi

Radiostansiya o'zining elektr ta'minot tizimidan, hamda uch fazali 380 yoki 220 V kuchlanishli sanoat tarmog'idan oziqlanadi.


Radiostansiyaning elektr ta'minot tizimiga birlamchi, ikkilamchi elektr manbalari va kommutatsiya, nazorat (himoya, yoqish, tarqatish, boshqarish) qurilmalari kiradi.

Radiostansiyaning birlamchi elektr manbalariga quyidagilar kiradi:

- o'zgaruvchan 3 fazali tok tarmog'idan 380/220V;
- 8 kVt li benzoelektr agregatdan “АБ-8-Т-400”;
- umumlashtirilgan elektr qurilmasidan “ЭУ-131-8-Т-400”;
- 12 kVt quvvatli elektrstansiyasi “ЭСБ-12-Т-400”, alohida joylashgan elektrostansiya turgan joyida asosiy elektr manbai hisoblanadi. Unga qo'shimcha yoqilg'i quymasdan 8 soatgacha ishlay oladi.

“АБ-8-Т-400” benzoelektr agregati stansiyaning harakatdagi va joyida turgandagi asosiy elektr manbai hisoblanadi. Unga qo'shimcha yoqilg'i quymasdan 4 soatgacha ishlay oladi, qo'shimcha yoqilg'i quyish hisobiga 24-soatgacha ishlaydi.

“АБ” – benzoelektr agregat, 8 – kilovattli, Т – uch fazali o'zgaruvchan tok, 400 – voltli kuchlanishni anglatadi.



3.1- rasm. “АБ-8-Т-400” benzoelektrik agregatining umumiy ko'rinishi.

Agar tarmoq kuchlanishining o'zgarishi katta bo'lganda ($330\pm 38V$) yoki radiostansiya o'zgaruvchan 220V kuchlanishli tok tarmog'idan oziqlanganda kuchlanishni muntazamlovchi qurilma (CH) ishlatiladi.

Radiostansiyaning ikkilamchi elektr manbalariga “BY-76” bloke va alohida qurilmalarning to'g'rilagichlari kiradi.

Radiostansiyaning kommutatsiya, nazorat (himoya, yoqish, tarqatish, boshqarish) qurilmalariga quyidagilar kiradi:

- tarmoqqa ulanish qalqoni (ТIII-24);
- kuchlanishli kirishi (ТIII-22);
- tarmoq filtri (АIII-81);

- avtomatik himoya qalqoni (ЩА3);
- kommutatsiya bloki (АПП-18);
- kommutatsiya blokini boshqarish bloki (АПП-37);
- tarqatish qutisi (PK);
- apparatxona sovutgichlarini yoqish pulti.

Tarmoqqa ulanish qalqoni – tarmoqqa ulanish va radiostansiyaning oziqlash zanjirlarini qisqa tutashuvdan saqlash uchun mo‘ljallangan.

Sanoat tarmog‘idan 3 fazali o‘zgaruvchan 380 V kuchlanish qalqonga 6 metrli kabel orqali ulanadi. Qalqonning pastki devorida ikkita kuchlanish kabelini ulash tirqichi va yerga ulash klemmasi joylashgan (qalqonning og‘irligi 6.5 kg.).

Kuchlanishli kirishi- radiostansiyaning o‘zgaruvchan elektr tarmog‘idan, qo‘shimcha yerga ulanish hamda tashqi iste‘molchiga ozuqa berish uchun mo‘ljallangan.

Kuchlanishli kirishga uchta tirqich va ikkita plata o‘rnatilgan, bularga quyidagilar ulanadi:

- ulanish qalqoni (Щ1);
- qo‘shimcha yerga ulanish (Щ2);
- tashqi iste‘molchi (рус. внешний потребитель) (Щ3);
- tarmoq filtri (П1 platasiga);
- avtomatik himoya qalqoni (П2 platasiga).

Tarmoq filtri bitta ozuqa manbasidan bir nechta radioqurilmalar ishlatilganda paydo bo‘ladigan radio shovqinlar darajasini pasaytirish uchun mo‘ljallangan.

Tarmoq filtrining tirqichi bo‘lib u orqali avtomatik himoya qalqoniga (ЩА3) agregatdan kungni yoritish uchun kuchlanish beriladi.

Avtomatik himoya qalqoni oziqlanish zanjirida sodir bo‘ladigan qisqa tutashuvlardan va yuklamadan (рус.перезрузка) himoya qiladi, hamda radiostansiya korpusida yerga nisbatan 24 V dan ko‘p kuchlanish bo‘lganda elektrozuqani uzib tashlaydi, kuchlanish borligi to‘g‘risida signal beradi va biron bir himoyalash elementi ishlab ketganda elektrozuqani tarmoqdan ajratish uchun mo‘ljallangan.



3.2- rasm. Avtomatik himoya qalqonining old tomondan umumiy ko‘rinishi.

Kommutatsiya bloki birlamchi elektr manbani radiostansiyaning asosiy iste‘molchilariga taqsimlab berish uchun mo‘ljallangan.

Kommutatsiya bloki elektr toki va kuchlanishlarni o‘lchovchi barcha o‘rnatilgan asboblarni ortiqcha yuklamadan (рус. перепрузка) va qisqa tutashuvdan himoya qiladi, fazalarni to‘g‘ri ulanishini nazorat qiladi, kiruvchi va chiquvchi elektr toki va kuchlanishlarni nazorat qilishni, uzatuvchi qurilmaning sovutgichlarini yoqadi va o‘chirganda bir necha daqiqadan so‘ng o‘chirishni ta‘minlaydi.

Kommutatsiya blokiga, radiostansiyani ozuqa bilan ta‘minlash uchun kerakli tirqichlardan barcha elektr manbalari ulanadi.



3.3- rasm. Kommutatsiya blokining old tomondan umumiy ko‘rinishi.

Kommutatsiya blokini boshqaruv bloki – kommutatsiya blokini yoqilishni boshqarish uchun mo‘ljallangan bo‘lib va quyidagilarni ta‘minlaydi:


- radiostansiyani tarmoqdan yoki benzin agregatdan yoqish va o‘chirishni boshqaradi;

- radiostansiyani manbasi tarmoqdan yoki benzin agregatdan yoqilganligi haqida signal beradi;

- kommutatsiya bloki transformatorlari manba zanjirlarini himoya qilish va saqlagichlarni kuyganligi haqida signal beradi;

- ta‘minot manbalaridagi fazalar kuchlanishlarini nazorat qilish.

Izoh: “Сеть вкл.” va “агрегат вкл.” tablo-tugmalarini birdaniga bosish ta‘qiqlanadi, chunki bunda kommutatsiya blokining avtomatika zanjiri uziladi va ikkala elektr ta‘minoti o‘chadi.



3.4- rasm. Kommutatsiya bloki boshqaruv blokining old tomondan umumiy ko‘rinishi.

Kuchlanishni muntazamlovchi qurilmasi (CTC-16/0.5C) tarmoq kuchlanishining o‘zgarishi katta bo‘lganda ($330 \pm 38V$) yoki radiostansiya o‘zgaruvchan 220V

kuchlanishli tok tarmog'idan oziqlanganda kuchlanishni muntazamlash uchun mo'ljallangan.

- quvvati –16 kVt;
- kirish kuchlanishi –380 yoki 220 V;
- chiqish kuchlanishi –380 V;
- og'irligi –260 kg.

KMQ (CH) yuklab olib yuriluvchi zaxira (рус.ЗИП) tarkibiga kiradi.

Taqsimlash qutisi barcha bir fazali o'zgaruvchan 220V, bort tarmog'i (рус.АКБ) va kuchlanishni o'zgartirgichga ulanadi.

Boshqaruv, blokirovka va signalizatsiya tizimi (BBS). BBS “BY-76H” blokida joylashgan. Bu tizim quydagilarni ta'minlaydi:

- manba kuchlanishini kerakli ketma-ketlikda ulashni;
- to'g'rilagichlarni qisqa tutashuv va keraksiz yuklamalardan saqlash;
- xizmatchilarni elektr tokidan shikast yetkazishdan saqlash;
- ishlab chiqarilayotgan kuchlanishlarni nazorat qilish;
- to'g'rilagichlar noto'g'ri ishlaganda nosozliklar haqida signal berish.

BBS tizimiga “BY-76” to'g'rilagichlar 1 va 2 zanjirlari saqlagichlari, signal chiroqlari ham kiradi.

“BY-76” qurilmasi quvvat kuchaytirgich kaskadlarini elektr manbai bilan ta'minlash uchun mo'ljallangan.

“BY-76” qurilmasi QK kaskadlari zanjirlarini o'zgarvas va o'zgaruvchan tok bilan ta'minlab beradi va “BY-76” to'g'rilagichni 3f o'zgaruvchan 380V, 50 Gs kuchlanishi bilan taminlaydi.

“BY-76” qurilmasining nominal kirish kuchlanishi - uch fazali, 380V 50 Gs chastotada.

“BY-76” to'g'rilagichi ikki blokdan iborat “BY-76B” (рус.высокочастотный) va “BY-76H” (рус.низковольтный).

“BY-76” kuchlanishni to'g'rilagich qurilmasi konstruksiyasi bo'yicha ikki blok ko'rinishida ishlangan. Bloklar bir-biri bilan “2PMT” tipidagi tirqich orqali ulangan. Birinchi (yuqorivoltli) blokda 2000, 600 V li to'g'rilagich transformatorlari va 150, 300, 320 V li to'g'rilagich transformatorlari joylashtirilgan. Ikkinchi (pastvoltli) blokda ikkita nakal transformatorlari, 5, 9, 27 V va minus 150 V li to'g'rilagich transformatorlari va avtomatika releysi joylashtirilgan.

Radiostansiyaning dala sharoitida ishlatganda asosiy birlamchi ta'minot manbai “АБ-8-Т/400” rusumli benzoelektr hisoblanadi.

“АБ-8-Т/400” rusumli benzoelektr agregati apparatxonani turgan joyida va harakatda ham manba bilan ta'minlaydi.

Yuqorida ko'rsatilgan qolgan barcha ozuqa manbalari apparatxonani faqat turgan joyida manba bilan ta'minlaydi. Benzoelektr agregati 3 fazali generatordan iborat bo'lib uning quvvati 8 kVt, kuchlanishi 380 V, “M-408” tipdagi benzinli dvigatel bilan ulanadi. Yoqilg'isi “A-72” benzin. Agregat to'liq quvvatda 24 soatgacha ishlashi mumkin. “ЭУ-131-8-Т/400” rusumli umumlashirilgan elektr qurilmasi radiostansiya turgan joyida ishlaganda rezerv ozuqa manbai hisoblanadi.

Uchinchi bo‘lim nazorat savollari

1. Radiostansiyaning birlamchi elektr manbalari.
2. Radiostansiyaning ikkilamchi elektr manbalari.
3. Avtomatik himoya qalqonining mo‘ljallanishi.
4. Kommutatsiya blokining mo‘ljallanishi.
5. “BY-76” to‘g‘rilagich qurilmasining mo‘ljallanishi.
6. “АБ-8-Т/400” agregatining mo‘ljallanishi.

4. RADIOSTANSIYANI ISHGA TAYYORLASH TARTIBI

4.1. Radiostansiyaning ishga tayyorlash tartibi

Radiostansiyaning ishga tushirishdan oldin uning barcha tarkibiy qismlarini butligi, boshqaruv organlarining boshlang'ich holatida turganligi, kabellarning tog'ri ulanganligi, yerga ulash simlarining mavjudligi va yerlagich qoziqlariga maxkamlanganligi tekshiriladi.

Radiostansiyaning elektr manbaini yoqishga tayyorlash.

Radiostansiyaning elektr manbaini yoqishdan oldin uning boshqaruv organlari boshlang'ich holatiga qo'yiladi. (1-o'quv mashq xaritasi)

Tarmoqqa ulanish qalqonida (ЩС) "ТПП-24":

– "СЕТЬ-ОТКЛ." o'chirgichi "ОТКЛ." holatida.

Avtomatik himoya qalqonida (ЩАЗ):

– "1-0" o'chirgichi "0" holatida.

To'g'rilagich qurilmasida (ВУ-76) "ТПП-13Н":

– "ПИТАНИЕ ВКЛ." tablo-tugmasi bosilmagan holatida.

– "ВЫСОКОЕ ВКЛ." tablo-tugmasi bosilgan holatida.

Quvvat kuchaytirgichda (УМ) "ТПП-6-1" va "ТПП-6-2":

– "АРН ВЫКЛ." tablo-tugmasi bosilmagan holatida.

– "ПРОВЕРКА" tablo-tugmasi bosilmagan holatida.

Sovutish qurilmasida:

– "1-0" o'chirgichi "1" holatida.

Qo'zg'atkich manba qurilmasida:

– "СЕТЬ - ОТКЛ." o'chirgichi "ОТКЛ." holatida.

Qo'zg'atkichda:

– "ПИТАНИЕ УСТРОЙСТВА - ОТКЛ." o'chirgichi "ОТКЛ." holatida.

"ПНР" da (АППС-93):

– "ПИТАНИЕ" tablo-tugmasi bosilmagan holatida;

– "ВЫСОКОЕ" tablo-tugmasi bosilmagan holatida;

– "КВ-УКВ" yoqib-o'chirgichi radioma'lumot bo'yicha "КВ" (yoki УКВ) holatida;

– "СА" yoqib-o'chirgichi "ОТКЛ" holatida;

– "ТГ-1" "ПНР" holatida;

– "ТГ-2, А₁, В₁" yoqibo'chirgichlari "ОТКЛ." holatida;

– "МОЩНОСТЬ АЗИ 100%-50%" yoqib-o'chirgichi "100%" holatida;

– "ВИД УПРАВЛЕНИЯ" yoqib-o'chirgichi "МЕСТНОЕ" holatida;

– "РЕЖИМ" yoqib-o'chirgichi "ДУПЛЕКС" holatida;

– "Т" yoqib-o'chirgichi "БП" holatida;

– "НАКАЛ-2, КВ, УКВ" tablo-tugmalari bosilmagan holatida.

Abonent kommutatorida (АППС-11):

– "СЕТЬ-ОТКЛ." o'chirgichi "ОТКЛ." holatida;

– “АБОНЕНТЫ СА” yoqib-o‘chirgichi “ОТКЛ.” holatida.

Qabulqilgich manba blokida (БЗ-28):

– “СЕТЬ-ОТКЛ.” o‘chirgichi “ОТКЛ.” holatida.

Qabulqilgichda:

– “ПИТАНИЕ-ОТКЛ.” “ОТКЛ.” holatida;

– “ОГ-ОТКЛ.” “ОТКЛ.” holatida;

– “ВИД УПРАВЛЕНИЯ” yoqib-o‘chirgichi “МЕСТНОЕ” holatida.

“АБ-482” blokida:

– “СЕТЬ-ОТКЛ.” o‘chirgichi “ОТКЛ.” holatida.

“Р-016В” qurilmasida:

– “СЕТЬ/АДАП./ВКЛ.” o‘chirgichi quyi holatida turadi.

4.2. Radiostansiyani 380 V li tashqi tarmoqdan yoqish va iste‘mol manbaini tekshirish

Radiostansiyani tarmoqdan yoqish uchun uning boshqaruv organlari 2-o‘quv mashq xaritasi bo‘yicha o‘rnatiladi.

Ulanish qalqonida:

– “СЕТЬ-ОТКЛ.” o‘chirgichi “СЕТЬ. На ЩАЗ” holatida;

– “СЕТЬ ВКЛЮЧЕНА” chirog‘i yonadi;

– “1-0” o‘chirgichi “1” holatida, bunda “АВТОМАТ ВКЛ.” chirog‘i yonadi;

“ПУБК” da:

– “СЕТЬ” chirog‘i yonadi;

– “ОТКЛ.” tablo-tugmasi yonadi;

– “НАПРЯЖЕНИЕ ФАЗНОЕ” yoqib-o‘chirgichi “СЕТЬ А, Б, С” holatida;

– “СЕТЬ ВКЛ.” tablo-tugmasini bosish, bunda tovushli signalizatsiya qo‘shiladi.

– **“ПНР” da:**

– “ОТКЛ. ЗВУК. СИГН.” tablo-tugmasini bosish;

– “ПИТАНИЕ” tablo-tugmasini bosish, bunda uzatkich sovutgichlari ishga tushadi.

Qo‘zg‘atkich manba qurilmasida:

– “СЕТЬ - ОТКЛ.” o‘chirgichi “СЕТЬ.” holatida;

– “КОНТРОЛЬ НАПРЯЖЕНИЙ” yoqib-o‘chirgichi “СЕТЬ.” holatida, bunda indikator shkalasi qizil sektorda turadi.

Qo‘zg‘atkichda:

– “ПИТАНИЕ ОГ” chirog‘i yonadi;

– “КОНТРОЛЬ” yoqib-o‘chirgichi “ПИТ.” holatida, indikator shkalasi bo‘yalgan sektorda turadi;

– “ПИТАНИЕ УСТРОЙСТВА-ОТКЛ.” o‘chirgichi “ПИТАНИЕ УСТРОЙСТВА” holatida;

–“ОТСЧЕТ ЧАСТОТЫ” tugmasi bosiladi, bunda “КИЛОГЕРЦЫ” tablosining sozligini bildiruvchi 8 raqami yoritiladi.

Qabulqilgich manba blokida:

– “СЕТЬ-ОТКЛ.” o‘chirgichi “СЕТЬ” holatida;

–“КОНТРОЛЬ НАПРЯЖЕНИЙ” yoqib-o‘chirgichi “СЕТЬ.” holatida, indikator shkalasi bo‘yalgan sektorda turadi.

Qabulqilgichda:

– “ПИТАНИЕ-ОТКЛ.” o‘chirgichi “ПИТАНИЕ ” holatida;

– “ОГ-ОТКЛ.” o‘chirgichi “ОГ” holatida;

– “ПИТАНИЕ, ОГ, ГОТОВ К РАБОТЕ” chiroqlari yonadi;

–“КОНТРОЛЬ” yoqib-o‘chirgichi “ПИТ.” holatida, indikator shkalasi bo‘yalgan sektorda turadi.

a). Radiostansiya elementlarini “на себя” rejimida tekshirish

Qo‘zg‘tkichni ishga tayyorlash

1. “БЗ-28” qurilmasida “СЕТЬ” tumblerini yoqish, bunda qo‘zg‘tkich qurilmasining “ПИТАНИЕ ОГ” chirog‘i yonadi, o‘lchov asbobi shkalasi bo‘yalgan sektorda turadi.

2. “ПНР” da “ПИТАНИЕ” tablo-tugmasini bosish, bunda tablo-tugmasi yonadi va uzatkich sovutgichlari ishga tushadi.

3. Operativ organlari quyidagicha o‘rnatiladi:

– “ПИТАНИЕ УСТРОЙСТВА-ОТКЛ.” tumbleri “ПИТАНИЕ УСТРОЙСТВА” holatiga o‘rnatiladi, bunda “ПИТАНИЕ УСТРОЙСТВА” chirog‘i yonadi va “БЗ-28” qurilmasining barcha kuchlanishlari va qo‘zg‘tkichning umumiy kuchlanishlari nazorat qilinadi;

– “УПРАВЛЕНИЕ” yoqib-o‘chirgichi “МД” holatiga o‘rnatiladi;

– “ВИД РАБОТЫ”, “РОД РАБОТЫ ТФ”, “РОД РАБОТЫ ТГ” yoqibo‘chirgichlari mos ish rejimi va ish turi holatida.

4. Nooperativ boshqaruv organini (qopqoq ostidagi tumbler) yuqori holatiga o‘rnatiladi.

5. Qo‘zg‘tkichning “ЗУ” da “ФЧ” ning qiymatini va antenna o‘rnatiladi.

6. “ПНР” da “ВОЛНА ПЕРЕДАЧИ” yoqibo‘chirgichini “ФЧ” raqamidagi berilgan mos radioma’lumot bo‘yicha o‘rnatish.

“ВИД УПРАВЛЕНИЯ” yoqibo‘chirgichini “МЕСТН.” holatiga o‘rnatish.

“ВКЛ” волна передачи” tablo-tugmasini bosish, bunda tablo yonadi;

7. Qo‘zg‘tkichda chastotalarning to‘g‘ri o‘rnatilganligini tekshirish.

